

**XIVA SHAHZODASI SHOIR SAYYID HOMID TO'RANING FOZILLAR  
MAJLISLARI (Sayyid Homid Komyobning "Tavorix ul-xavonin" asari  
ma'lumotlari asosida)**

***Sherxon QORAYEV,***

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti  
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Muhammad Rahimxon Feruz saroyida o'tkazilgan she'riyat kechalari o'z davrida mashhur bo'lgan. Tarixchi Muhammad Rizo Ogahiy "Shohidu-l-iqbol"da bunday yig'inlar haqida shunday yozgan: "*Va ul hazrat (Muhammad Rahimxon) aksar avqot (vaqtini) ulamoyi fazilatshior va fuzaloyi fatonatosorga kamoli dindorlig 'din behishtnamudor majlisig'a yo'l berib, ul jamoa bila hamsuhbat bo'lub, masoyili diniyya va mabohisi "yaqiniya" mukomalasi adosidin so'ng tavorix va g'azaliyot kitoblarin arog'a solib, kitobxonlig' va ma'nodonlig' sahboyi farahafzosi bila bazmi oliysin qizdurub, ayshu tarab dodin berur erdi. Va shuaroyi zamon ul hazratning muborak otig'a g'arro qasidalaru shavqafzo g'azallar va dilkusho ta'rixlar iboratoro masnaviylar nazm silkiga chekib, in'omi vofir va ehsoni mutakosiridin mahzuzu bahramand bo'lub, duoyi davlatin virdi zabon va rutbu-l lison qilur erdilar.*"<sup>1</sup> Binobarin, adabiy majlislarda shahzoda Komyob kabi xorazmlik shoirlar o'zlarining Feruzshohga bag'ishlangan qasidalarini o'qishgan:

*Ey, jamolingdin muzayyan bu jahonning ziynati,  
 V-ey, qudumingdin muborak dahr elining zoti.  
 Ey jonibingda bo'lub xurshid har kun jabhasoy,  
 O'zini aylar g'ulom, xodiminglon ulfati.<sup>2</sup>  
 Ey kelib iydi hiloli ostonang xokig'a,  
 Bo'sa aylar ko'rguzur maddohlig' ila xizmati.  
 Ey, kaloming durfishonlig' qilsa lutf izhor et,  
 G'amda qolg'on dil topar behad masarrat ishrati.  
 Ey, yading yamni bila olam eli xurshid erur,  
 Topibon bazli farovon shoda bo'ldi suhbati.  
 Ey, qilib ko'kda maloyiklar duosi subhi shom,  
 Yer yuzida insu jin omin deyurga niyyati.  
 Ey, bo'lub har kun fuzunroq aysh ila xurramlig'ing,  
 Bahri adlinglon bo'lsun olam misoli jannati.  
 Ey, Rasulullohdin yetib madad har dam sango,*

<sup>1</sup> Muhammad Rizo Ogahiy. Shohidu-l-iqbol. T.: Muharrir, 2009.-B.34.

<sup>2</sup> Sayyid Homid To'ra Komyob. Devon. T.: Fan, 2018.-B.235.

*V-ey, janobing ortdurub har kun taraqqiy shavkati.  
 Borcha mursallar, ham sahoba, ham valilar ruhidin,  
 Istinoatlar yetar, bo‘lub inoning nusrati.  
 Haq taolo buyruquncha toat ila adl etib,  
 Jobajo qilg‘ungdur ul borcha faroyiz sunnati.  
 Ham kushodaru, ham xulqi halimi saxo  
 Sango bordur, sen erursan Mustafo xos ummati.  
 Tengri amru nahi ichra sidqi ixlosing saning,  
 Go‘yiyo andoq erur Bu Bakr Siddiq xislati.  
 Adli insofing chirog‘idin bo‘lib ravshan jahon,  
 O‘ylakim bordur sango Foruqi a’zam nisbati.  
 Ham hayovu hilm aro tashbihing etsam yo‘q ajab,  
 Bilgurur olam aro xulqing chu Usmon ismati.  
 Kashfi ehsoning bila ma’mur erur olam bori,  
 Ko‘rgo‘zub bazl ato Murtazoning jur’ati.  
 Chahoryor af’oli fe’ling bo‘lsa, ey neki hisol,  
 Qayda bo‘lg‘ay sancha Shervon bila Xotam himmati.  
 Shafqating zilli bila Xivaq topib ravnaq tamom,  
 Ulki Xorazm aro bordur hamisha rofiyati.  
 Har kuning sa’d ichra iydu, har tuning qadr oqshomi,  
 Yonglig‘ o‘lub, bordur onda har birin xosiyati.  
 Ey, uzoring iyididin olam topib amniyati,  
 V-ey, jamoling mohidin ofoq arodur behjati...  
 Garchi xavonini salotinsan jahon ayvonida,  
 Lek bordur borcha af’oling viloyat siyrati.  
 Madhingni so‘ngg‘acha dil ismi humoyuning uchun,  
 O‘zda ko‘rguzdi umid aylab muammo surati.<sup>3</sup>  
 Holima loyiq muammo darji tahrir ayladim,  
 Olam ermas erdi ko‘nglumga muammo diqqati.  
 Qaysi shahning ismidur shahanshahlar ofoq aro,  
 Jumla xonlar afzali Sikandar hashmati.  
 Tangrining hamdin muhib etmish o‘ziga ne ajab,  
 Bo‘lsa toji makramat hamdig‘a toji qiymati.  
 Hay qushi ram aylamish erdi jahon tashvishidin,  
 Tong emas orom ichra agar ko‘rguzsa odam hay’ati.  
 Bodai davrdin no‘sh etib yoring oyoqig‘a urub,  
 Olti luqma xon vaslidin, oldi himmati.*

---

<sup>3</sup> Sayyid Homid To‘ra Komyob. Devon. T.: Fan, 2018.-B.237.

*Nomi farruxfolini til bila etmaq yo‘q adab,  
 Shul sababdin ko‘nglima keldi muammo fikrati.  
 Xalladallohu taolo ziyada umra mulkahu,  
 Kim ikki olam aro bo‘lg‘ay fuzuntarроq izzati.  
 Komyob, jonu dilinglon xizmatig‘a bog‘lag‘il,  
 Kamtarin chokar erursan, shoyad o‘lg‘ay shafqati.  
 Iltifoti bahravar bo‘lsa sango olam aro,  
 Topg‘usi alfozi shirin birla she’ring shuhrati.  
 Yo Iloho, davlatu umrin fuzun aylab bori,  
 Hosil etgil har na olam ichra bo‘lg‘ay rag‘bati.  
 Bu qasida ichra o‘zim dog‘i qildim raqam,  
 Shoyad anglar zebi birla topg‘ay ul ham suhbati.  
 Oftobg‘a nogahon yetti qo‘lum yuz shukrkim,  
 Hamdim ichra bor ahdi yaktoning lazzati.  
 Bo‘lg‘asan rost yo‘lda xurram Tengri farmoni bila,  
 Hosil o‘lg‘ay ko‘nglungga bori muammo ne’mati.  
 Yo Rab, etkaysan mani kavnayn aro ahvolima,  
 Fazli vofir, lutfi behad, bazl birla rahmati.<sup>4</sup>*

Shahzoda Sayyid Homid To‘ra (1861-1930) tazkiravisi Laffasiy ta’biri bilan aytganda, “Sayyid Muhammadxonning oltinchi o‘g‘li bo‘lib, otadin yosh sag‘ir qolib, akasi Feruz Muhammad Rahimxon tarbiyasi bilan kamolga yetishib, ilm – tahsilini Xiva ulamo – mudarrislaridin o‘qib, bir xili ma‘lumotli bo‘ladur.

Komyob yoshlig‘ zamonasidin tarix ilmiga havaskor bo‘lib, doimo turlik tarixlar mutolaa qilib, hamma vaqtlar fikri – zikri tarix bo‘lur sababli Komyob dag‘i Xiva xonligining ahvoloti xususida bir tarixkim bir kitob ta’lif etadur. Va Komyob taxallusi birlan devon yozib, o‘zidin asar qoldiradur. Ammo Sayyid Homid to‘ra uzun bo‘ylug‘, qora qova saqqollig‘ bir sodda, har bir so‘zlarga ishonguvchi bo‘lib, hamma vaqt o‘z barobari ulamo mudarrislar bilan suhbat qilib, kitob mutolaa muzokira qilur erdi”.<sup>5</sup>

Shahzoda Komyob huzurida fozillar ishtirokida ma‘rifiy suhbatlar, she’rxonlik majlislari hamda kitobxonlik kechalari o‘tkazilgan.<sup>6</sup>

*Komyobkim Sayyid Homid to‘ra,  
 Oning tab‘i she’rikim ajab purmaza.  
 Erur shahzodayi komyob,  
 Oning nuktadonligi bo‘lib dostoni kitob.  
 Qilib ta’lif tarix, devone,*

<sup>4</sup> Sayyid Homid To‘ra Komyob. Devon. T.: Fan, 2018.-B.238.

<sup>5</sup> Laffasiy. Tazkirai shuaro. Urganch: Xorazm, 1992.-B.29.

<sup>6</sup> Qoraev Sh. Xiva xoni Sayyid Muhammad Bahodirxon va uning farzandlari ijodi hamda saroy adabiy majlislarining o‘ziga xos xususiyatlari://Ta’lim va rivojlanish tahlili, Jild 4, nashr 3. (<https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/9982>). Toshkent, mart – 2024.-B.91-106.

*Suxondonligida har biri maoni.*

*Yozib bir Komyob devon asarni,*

*Kitobat shavqida jonon asarni.<sup>7</sup>*

Shuningdek, Muhammad Rahimxonning ukasi Sayid Homid to‘ra (Komyob) ham hukmdorning suhbat va mubohasalari, shoir va musiqa bilimdonlari ishtirokida bo‘lib o‘tadigan adabiy kechalar, she’rxonlik majlislari hamda musiqa bazmlarida muntazam ishtirok etib borgan. Bunday davralar shahzoda kamolotida muhim rol o‘ynagan. Shoir shahzoda yoshligidan doimo adabiy yig‘inlardan tashqari, olimlar majlislari va kitobxonlik kechalarida ham ishtirok etib, o‘z salohiyatini oshirib borgan. Uning o‘zi bu haqda “Tavorix ul-xavonin”da “*umrimiz muddati yigirmaga to‘lguncha fozilu shoirlar, oqil olimlar davrasi, majlisida donish olib, kitobat ijod sirlarini o‘rgandik*”,<sup>8</sup> - degan.

*Suhbat az fozilonro tab ‘i mo,*

*Az siroyat kard chun fozilnamo.*

*Majlis az fozilon fozil buvad,*

*Ulfati vaz johilon johil buvad.*

(Mazmuni: Fozillar suhbatidan tab ‘imiz, Siyratimiz fozilnamo bo ‘ldi. Fozillar majlisi fozil bo ‘lur, Johillar ulfati johil bo ‘lur.)

Shahzoda Sayyid Homid to‘ra Komyob XIX asr oxiri va XX asr boshida Xorazmda eshonlar huzurida jahriy zikr yig‘inlari – samo’ majlislarida ishtirok etgan: “*Ondin so ‘ng Qur’oni sharif tilovati halovatig‘a mashg‘ul bo ‘ldim. Va eshoni murshidonlarni chaqirib, masjidda suhbatи jahr etib, zikru samo ’laridin masarrat topdim...*

Xususan, eshoni murshidon jamoasin diydorlarining nuridin ko‘zlarimni munavvar, qalblarining zikru samo ’lari anvoridin qalbimni ravshan va mubarhan qilmoq uchun ko‘rmakka tolib va suhbatи muboraklarig‘a rog ‘ib erdim...

Qatag‘ondagi eshoni g‘ufroniyi Rabboni hazrati Islomxoja eshonimiz marhumiyining suhbatи behjatasarlarig‘a doxil bo ‘lub, ulfati masarrat samaralari favokisi, ya ’ni fayzun – nufusi muboraki bobarakotlaridin purdil bo ‘lur erdim... Shukri vuzuh va salovat, tahajjud va namoz tasbehot adosidan so ‘ng, va zikru samo ’ shug ‘lidin forig‘ bo ‘lub, tong namozini o ‘qirdi...

Chotko ‘frukli hazrati Ibodulloh eshonimiz qounshidirlar, goh – banogoh so ‘filer bilan taklif etib chaqirib, jahr suhbatlarig‘a musharraf bo ‘lub, sharifi zikru samo ’laridan bahrayob, ishratmaob bo ‘lur erdim. Goho ko‘rgali yonimga kelur erdilar. Ul hazratning suhbatlari karaxiy tariqida erkan, jahrining orasida xalqaiy jahrni buzmayin kam – kam, ohista – ohistaliq bila surishub, uyon – buyong‘a borib

<sup>7</sup> Laffasiy. Tazkirai shuaro. Urganch: Xorazm, 1992.-B.28.

<sup>8</sup> Sayid Homid To‘ra Kamyob. Tavorix ul-xavonin. T.: Akademiya, 2002. – B. 99.

*kelib, shul tartibda jahr aytar erkanlar. Va namozning izidan “Avrod” barobarida hazrati mavlono Rumiy alayhir rahmaning “Masnaviyi sharif”laridin o‘qur erkanlar...*

*G‘oziboddag‘i hazrati Ulug‘jon eshonimiz bila ikkovimizning borish – kelish ravishimiz bor edi... Gohi so ‘fiylari bila chaqarib, ziyofat etib, suhbatи jahrlariga doxil va mahofil majma‘larig‘a o‘zni vosil qilib, maqsud chirog‘in ul humoyun majolisida yorutgoli mahsul bilib, xushnud bo‘lur erdim. Suhbatи jahrlari bu tariqada erkan: jahr xalqasig‘a ko‘hna so‘fiylar kirib, toza so‘fiylari xalqa tashqarisada turub jahr etar erkanlar. Va gohi mani ziyofatg‘a taklif etib chaqirib, jahri mahofillarin ko‘rguzur erdilar. Xususan, masjid bino etganimdin so‘ngra jahr etmakka loyiq erkan, deb goh – bagoh so‘fiylari kelib, ziyofat olib, masjid ichida suhbat tuzub, jahr qilur erdilar”.<sup>9</sup>*

*Gahi ilm ahliga hamsuhbat o‘ldim,*

*Gahi juhhol ila hamulfat o‘ldim.*

*Qilib ilm ahlidin ma’nini hosil,*

*Ma’oniy bikrin etdim dilga vosil.*

*Gahi tuzdim afozil birla majlis,*

*Bilibon o‘zima onlarni munis.*

*Onlarning suhbatidin fayz topib,*

*Iborot adhamin har sori chopib.*

*Ko‘ngul chun istagandek kom oldim,*

*Gah donish gulshaniga o‘zni soldim.*

*Gahi zuhhod sori shodu xandon,*

*Borib xizmatga chun besabru somon.*

*Bo‘lub ul fayzasar suhbatga vosil,*

*Qilib ondin base ko‘b fayz hosil.*

*Gahi bo‘ldum chu izzat uzra orom,*

*Ichibon baxt alidin bodayi jom.<sup>10</sup>*

Komyob Xivalik eshonlarning diniy suhbat – majlislarida qatnashib, ilmiy mubohasalarda ishtirok etgan: “*Hazrat Sodiq eshonimizning goh – goh chaqirib, suhbatи muboraki bobarakatlariga sa‘yi ko‘shish, etib yetib vosil bo‘lub, va mahofili chihil tan sifatlariga doxil bo‘lub, bahra hosil qilur erdim...*

*Hazrati buzrukvor Ibodullo eshonimizni ziyorat etib bir marotaba diydori farxundaosorlarin ko‘rdim...*

*Va ul buzrukvorning o‘g‘ullari hazrati Yusufxon eshonimizning suhbatи muboraklariga goh – goh vosil bo‘lub va chaqirib va ham ulfat oylanib ko‘nglumga farahlik hosil bo‘lur erdi...*

<sup>9</sup> Sayyid Homid To‘ra Komyob. Tavorix ul-xavonin.T.: Akdaemiya, 2002.-B.104.-105.

<sup>10</sup> Sayid Homid To‘ra Komyob. Tavorix ul-xavonin. T.: Akademiya, 2002.-B.20.

*Va goho chig‘atoyli eli hazrat eshon Bobo eshonimiz bila raftu omad hammajlis bo‘lur erdim...*

*O‘zbekyosli hazrat Siddiq mahzum eshonimizni borish – kelishlari bo‘lub, qarindoshliq aloqasi hissati sababi bila o‘zgalardin yaqin erdilar...*

*Urganchlik hazrat Solih Maxzum eshonimiz bila bir martaba yo‘luqushib so‘zlashib, duolarin olib erdim.*

*Shayxlar, dog‘i hazrat Bahouddin eshonimizni bir yo‘la ko‘rib, muloqotlashib, ziyyorat qilib erdim”.<sup>11</sup>*

Komyob yoshligidan Muhammad Rahimxon Feruz ijodidan ta’sirlanib she’r yoza boshlagan.

*Ey Komyob hamisha muayyan mushfiqing saning,*

*Shohi zamon – xoni Muhammad Rahimdur.<sup>12</sup>*

Xonzoda shoirning o‘zi Feruzshohning g‘amxo‘rligi haqida “Devon”i debochasida shunday yozgan: “Va mening shoirliqg‘a shug‘lim ko‘bligini ul hazrati a’lo xoni Muhammad Rahim Bahodirxon Soniy doma davlatahu eshitibdurlar va manga xat mashq qildurmoq uchun devonlaridin bir ustoz qilib erdilar, onga aytibdurlarkim, “Sayyid Homid to‘rang g‘azal mashq qilur ermish, oning aytg‘on g‘azallaridin kelturgil” deb. Men ul hazratning o‘zlari aytg‘on g‘azallaridin birin hamul vaqtida muxammas qilib erdim, oni ul bila ul hazratning xizmatlarig‘a yubordim. Ul hazrat oni ko‘rub, zehni yaxshi ekan deb, buyurubdurlarkim, aytg‘on g‘azallarin keltur deb. Men aytg‘on g‘azallarimni berib yubordim. Ondin so‘ngra o‘zum ham salom bergali xizmatlarig‘a bordim. Ko‘rsam, maning g‘azallarimni mushohada qilib o‘lturub erkanlar, manga nazarlari tushub, iltifot yuzidin kulub, dedilarkim, “Yaxshi shoir bo‘lg‘udek zehning bor erkan, o‘ltur”, deb mehribonlig‘ qildilar. Ul vaqtda mashhur shoirlardin bir shoir bor erdi, oni chaqir deb, mahramlaridin biriga buyurdilar. Ul borib oni kelturdi. Ul g‘azallarni onga berib, dedilarkim, “To‘rang she’r mashq etib yurugan erkan, bu g‘azallar muning she’ridindur, imtihon etib ko‘rgilkim, ne tariqa erkan!?” Ul ba’zisin o‘qub va ma’nisin imtihon etib, dedikim: “Andak isloh bila har nechuk shoirlarning she’rlaridek bo‘lg‘usidur, oning uchunkim, avvalg‘i mashq etganlaridur, andak islohg‘a muhtojdur”. Ondin so‘ngra ul hazrat manga dedikim, “Emdi g‘azal mashq qilg‘oningdin so‘ngra menga kelturub ko‘rsat va munga ham yuborib ko‘rsatgil, o‘tkarib bersun”, - deb amr qildilar”.<sup>13</sup> Shundan so‘ng shoir Komyob yozgan she’rlarini Feruzshoh va ustoz shoirlar nazaridan o‘tkazib, ijodini takomillashtirib borgan.

*Lutf etib holimga boqg‘il, man xarobingman saning,*

<sup>11</sup> Sayyid Homid To‘ra Komyob. Tavorix ul-xavonin.T.: Akdaemiya, 2002.-B.102.-106.

<sup>12</sup> Sayyid Homid To‘ra Kamyob. Devon. T.: Fan, 2018.-B.93.

<sup>13</sup> Sayyid Homid To‘ra Kamyob. Devon. T.: Fan, 2018.-B.12-13.

*Kecha – kunduz orzui bodai nobingman saning,  
 Karam etmay har dam etgan ijtinobingman saning,  
 Bilgil oni, ey nigoro, Komyobingman saning.  
 Bir tarahhum etmading hajringda man qildim fig‘on,  
 Ko‘zu qoshingning xayoli ayladi dilda makon,  
 Javr tiyg‘in tez etarsan jong‘a urmoqg‘a ravon,  
 Bilgil oni, ey nigoro, Komyobingman saning.  
 Javringni tark aylabon lutfingni qilg‘il elga ru,  
 Yonimg‘a kel bu nafas noz aylabon, ey mohru,  
 Sunbul zulfiq bila bazmimni qilg‘il mushkbu,  
 Bilgil oni, ey nigoro, Komyobingman saning.  
 Lutfini bisyor etibon, javringni ham aylab oz,  
 Bir kecha bazmimg‘a kelsang aylabon bir lahza noz,  
 Aylayurman xok poyingga saning jonim niyoz,  
 Bilgil oni, ey nigoro, Komyobingman saning.  
 Oraz ochg‘il tiyra kulbam ichra kir, qilma shitob,  
 Hajr shomidin chiqib bir dam ko‘rayin oftob,  
 Rahm etib man zordin ko‘b qilma san ijtinob,  
 Bilgil oni, ey nigoro, Komyobingman saning.  
 Ko‘zlarim giryon erur husningni birdam ko‘rgali,  
 Orzudur kecha – kunduz visoling ichra yetgali,  
 Lutfila kelsangyonimg‘a matlabimdur butgali,  
 Bilgil oni, ey nigoro, Komyobingman saning.  
 Ey pari, kelgil yonima eldin nihon,  
 Jonu dil vasling bila bo‘lsun bulitdin omon,  
 Yoqmag‘il hajr o‘tig‘a aylab inoyatlar ayon,  
 Bilgil oni, ey nigoro, Komyobingman saning.<sup>14</sup>*

Pirovardida, shoir Komyob akasi xonlar shoiri Feruz ustozligida ijod ummoniga sho‘ng‘igan, deyishimiz mumkin. Sayid Homid To‘raning yozishicha, “*Ondoqkim, shodmonlik yeli bo‘stoni tab ‘imga essa, filhol zamoni xurramlikda rishtayı nazmg‘a chekar erdim va zamon inqilobidin oyinayi zamirimda andak mukaddarlik zangi zuhur bo‘lsa, oni ham shul ovonda tavorix safhasig‘a nazar qilib, zamoni taqaddumda o‘tgan voqeotlar sayqali va devonning g‘azaliyotlarining afzali bila daf’ qilur erdim*”.<sup>15</sup>

*Mango aylabon yor lutfu karam,  
 Qilib bazmimni lahza kavsу jam.  
 Hazin ko‘nglum erdi firoqi aro,*

<sup>14</sup> Sayyid Homid To‘ra Kamyob. Devon. T.: Fan, 2018.-B.288-289.

<sup>15</sup> Ko‘rsatilgan asar.-B.20.

*Labin so‘rdi xushnud o‘lub lahza fam.  
 Shu’oi jamlovu g‘unchi bila.  
 Fuzuroni pur, bazmi nozu sham.  
 Olib ilkiga sog‘ar la’li nob,  
 Ichib tutdi so‘ngra mango dam-badam.  
 Tizim uzra ilkim qo‘yub o‘lturub,  
 Takallumu tabassum qilib ul sanam,  
 So‘rub holimi nozu ishva bila.  
 Boshimdin et raf‘i hajri sitam.  
 Bo‘lub masti diydor ham bodadin,  
 Bu tun Komyob topdi nozu na’m.*<sup>16</sup>

Uning she’rlari Xiva xonligida mashhur bo‘lgan.<sup>17</sup> Tazkiravni Hasanmurod Laffasiyning yozishicha, “Komyobning she’rlari ajab bir dilkash bo‘lib, har bir g‘azali bir ma’shuqona, ishq, muhabbatdin bo‘lsa-da, asli maqsud haqiqatda bir daryoyi ilm muhitikim ilm g‘avvoslari ondin durri javohirlar terib olmoqlig‘ uchun o‘z ojizlig‘larin iqror bo‘lur erdilar...

*Sayyid Homid shahzodadur,  
 Oni ta’bi she’ri ozodadur.  
 Xirad ichra ajab maqbul ta’bi,  
 Tavorih ilmiga sheri mardi.  
 Dedi bu abyotni ul nekzod,  
 Ko‘ngil maxzanin aylab kushod.  
 Ajab muhabbatlig‘ doston qilib,  
 G‘am-alamdin ko‘ngul shodon qilib”.*<sup>18</sup>

Xiva adabiy muhitida tarbiya topgan Komyob bitta she’riy devon, Xorazm tarixiga oid “Tavorix ul-xavonin”, “Muntaxab ul-voqeot” kabi tarixiy asarlar va XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xorazmda yuz bergan tabiat o‘zgarishlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi esdaliklar yozib qoldirgan.

“Devoni Komyob” (Tartib raqami V 2324) Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari institutida saqalanadi. U taxminan 1880 yilda ko‘chirilgan. To‘plam xorazmlik shoirning o‘z ijodi haqida bitgan muqaddimasi, “Oshiqlar tumori” nomli kirish qismi va “Oshiqlar do‘sti” nomli g‘azallar bo‘limidan tarkib topgan. Shundan so‘ng qasidalar, masnaviyalar, muxammaslar, chiston va ta’rixlar o‘rin olgan. Kitob ancha payt mashhur amaldor, shahzoda Otabek to‘raning shaxsiy kutubxonasida saqlangan va keyinroq uning o‘zi kitobni rossiyalik etnograf sharqshunos olim

<sup>16</sup> Feruz gulshani. T.: Mumtoz so‘z, 2016.-B.27.

<sup>17</sup> Qorayev Sh. Xiva xoni Sayyid Muhammad Bahodirxon va uning farzandlari ijodi hamda saroy adabiy majlislarining o‘ziga xos xususiyatlari//Ta‘lim va rivojlanish tahlili, Jild 4, nashr 3. (<https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/9982>). Toshkent, mart – 2024.-B.91-106.

<sup>18</sup> Laffasiy. Tazkira shuaro. Urganch: Xorazm, 1992.-B.28-29.

A.N.Samoylovichga tuhfa qilgan. Olim 1927 yilda bu qimmatli manbani Osiyo muzeyiga topshirgan.<sup>19</sup>

“Tavorix ul-xavonin”<sup>20</sup> asarida Xiva qo‘ng‘iroq inoqlarining qay tarzda hokimiyat tepasiga kelishi va ularning markazlashgan hukumat tuzish yo‘lidagi kurashlari, yovmutlar, Orolbo‘yi, Qo‘ng‘iroq ahonisiga qarshi hamda chegara yerlari uchun Buxoro bilan olib borgan tinimsiz kurashlari, Rossiya imperiyasining xonlikka qarshi harbiy yurishlari bosqichma – bosqich yoritilgan.<sup>21</sup>

Komyobning “Muntaxab ul-voqeot”<sup>22</sup> nomli ikkinchi badiiy – tarixiy asarida turklarning paydo bo‘lishi, turkiy urug‘lar, xususan, qiyot, qipchoq, qang‘li, qo‘ng‘iroq urug‘ining kelib chiqishi, tarmoqlari kabi masalalar o‘z aksini topgan. Asarda Eltuzarxonning Xorazmda hokimiyatni egallashi va hukmronlik davri, turli davrlarda yashagan taniqli kishilar hayoti, ota – bobolarining shajarasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Komyobning “Esdaliklar”ida esa XIX asrning so‘nggi choragi va XX asr boshlarida Xiva xonligida ro‘y bergan tabiat o‘zgarishlari, yer silkinishlari, turli xil g‘aroyib hodisalar, samoviy harakatlarga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Unda Komyobning tabiat hodisalariga munosabati, olam va odam haqidagi bilimlari, o‘scha davr kishilarining e’tiqodi va dunyoqarashi o‘z aksini topgan.<sup>23</sup>

“Feruz – shoh va shoir qismati” nomli risolasida yozilishicha. “Sayyid Homid to‘raning “To‘raxonim” nomli boshqa bir tarixiy asari ham bo‘lgan. Asar Feruzga ma’qul tushgan va undan bir necha nusxa ko‘chirilgan. Lekin hozirgi qadar uning qo‘lyozmasi topilgan emas”.<sup>24</sup>

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Xiva adabiy muhitining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Komyobning saroydagi suhbat va mubohasalar, shoir va musiqa bilimdonlarini ishtirokida bo‘lib o‘tadigan adabiy kechalar, she’rxonlik majlislari, musiqa bazmlari, din va tariqat peshvolarining ilmiy suhbatlari va zikru samo’ yig‘inlarida ishtirok etib borishining hamda ana shunday adabiy muhitda tarbiya topishining samarasi o‘laroq, Sayyid Homid to‘ra yetuk shoir va tarixchi bo‘lib shakllangan, deyishimiz mumkin.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. 1.Muhammad Rizo Ogahiy. Shohidu-l-iqbol. T.: Muharrir, 2009.-B.34.
2. 2.Sayyid Homid To‘ra Kamyob. Devon. T.: Fan, 2018.-B.235.

<sup>19</sup> O‘zbekiston madaniy merosi. Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari instituti to‘plami. T.: “Silk Road Media” – “East Star Media”, 2020.-B.398.

<sup>20</sup> O‘zR FA ShI. Qo‘lyozma raqami №3730/II, 281a-varaq. Hoshiya.

<sup>21</sup> O‘zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.(XIX-XX asr boshlari). Mas’ul muharrir: D.Ziyaeva. T.: “Nurafshon business”, 2022.-B.2022.-B.25.

<sup>22</sup> O‘zR FA ShI. Qo‘lyozma raqami №3730//II

<sup>23</sup> O‘zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.(XIX-XX asr boshlari). Mas’ul muharrir: D.Ziyaeva. T.: “Nurafshon business”, 2022.-B.2022.-B.26.

<sup>24</sup> Rahim D., Matrasul Sh. Feruz – shoh va shoir qismati. T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMB, 1991.-B.77.

3. 3.Laffasiy. Tazkirai shuaro. Urganch: Xorazm, 1992.-B.29.
4. 4.Sayyid Homid To‘ra Komyob. Tavorix ul-xavonin. T.: Akademiya, 2002. – B. 99.
5. 5.Feruz gulshani. T.: Mumtoz so‘z, 2016.-B.27.
6. 6.O‘zbekiston madaniy merosi. Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari instituti to‘plami. T.: “Silk Road Media” – “East Star Media”, 2020.-B.398.
7. 7.O‘zR FA ShI. Qo‘lyozma raqami №3730/II, 281a-varaq. Hoshiya.
8. 8.O‘zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar.(XIX-XX asr boshlari). Mas’ul muharrir: D.Ziyaeva. T.: “Nurafshon business”, 2022.-B.2022.-B.25.
9. 9.O‘zR FA ShI. Qo‘lyozma raqami №3730//II
- 10.10.Rahim D., Matrasul Sh. Feruz – shoh va shoir qismati. T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMB, 1991.-B.77.
- 11.11.Qorayev Sh. Xonga taskin bergen adabiy majlis yohud Muhammad Rahimxon Feruz she’riyat kechalarining siri// “Sanduvoch”, Qarshi. 2021 yil 15 iyul. №13(446).-B.6.
- 12.12.Qorayev Sh. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari (Muhammad Rizo Ogahiy asarlari ma’lumotlari asosida)./ Zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojida Usmon Nosir ijodiy merosining ahamiyati mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. NamDU, Namangan.2022 yil.-B.210-216.
- 13.13.Qorayev Sh. Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari va Muhammad Rizo Ogahiy / Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar tarbiyasi uchun namuna mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. II-Qism. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent. 2021 yil.-B.31-37.
- 14.14.Qorayev Sh. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari tarixi (Muhammad Rizo Ogahiy asarlari ma’lumotlari asosida). “Anvori ilm” jurnali. Tojikiston, Panjakent. 2022 yil. -№ 3-son. –B.225-229.
- 15.Karayev Sh. The History of Literary Evenings of Khiva Khan Muhammad Rahim Khan Feruz//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences.2023 yil fevral.-P.64-67.
- 16.16.Karayev Sh. The History of Literary Evenings of Khiva Khan Muhammad Rahim Khan Feruz// Suv resurslari va gidrotexnika inshootlaridagi muammolar va ularning yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanı to‘plami. Qarshi. QIAI, 2023 yil, 15-16 mart. -B.769-772.
- 17.Qorayev Sh. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Feruz adabiyot kechalari va Ogahiy/ Xorazm, Xiva. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. 2023 yil.-№ 6/4 son.- B.156-159.
- 18.18.Qorayev Sh. Majlisi humoyun: tarix va tadqiq// Toshkent, Tafakkur. № 01/2023. – B. 121-123.

- 19.19.Qorayev Sh. Xiva xoni Sayyid Muhammad Bahodirxon va uning farzandlari ijodi hamda saroy adabiy majlislarining o‘ziga xos xususiyatlari./Ta’lim va rivojlanish tahlili, Jild 4, nashr 3. Toshkent, mart – 2024.-B.91-106.
- 20.Karayev Sh. Khiva Khan Muhammad Rahimkhan Feruz palase literary environment and literary evenings/ «Geodeziya va geoinformatika sohasini rivojlanish istiqbollari: muammolar va yechimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari to‘plami.-Qarshi, QarIA: 2024.-P.678-680.
- 21.Qorayev Sh. Tushkunlikdagi tasalli// Toshkent, Sharq yulduzi, 2022 yil.-№11.- B.131-133.